

O'RTA ASRLAR DAVRI DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVINING TAHLILLARI

Abduazimov Davronbek Baxtiyor o'g'li

Guliston davlat universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10825553>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'рта asrlarda Markaziy Osiyoda hukm surgan davlatlarning o'zbek davlatchiligi va boshqaruvida tutgan o'rni va roli masalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: davlatchilik, davlat boshqaruvi, Turk hoqonligi, Ashin, Tuu, Movarounnahr, Xuroson.

ANALYZES OF STATEHOOD AND ADMINISTRATION OF THE MIDDLE AGES

Abstract. This article focuses on the role of the states that ruled in Central Asia in the Middle Ages in Uzbek statehood and governance.

Keywords: statehood, public administration, Turkish Kaganate, Ashin, Tuu, Movarounnahr, Khorasan.

АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ И УПРАВЛЕНИЯ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль государств, господствовавших в Средней Азии в средние века, в узбекской государственности и управлении.

Ключевые слова: государственность, государственное управление, Турецкий каганат, Ашин, Туу, Мовароуннахр, Хорасан.

Markaziy Osiyo hududlarida bir qator davlatlar, xalqlar yashagan va tarixda o'ziga xos iz qoldirib ketgan. Ushbu davlatlar mintaqada hududida shakllanib, rivojlanib, keyinchalik tarix sahnalaridan ketishi bilan birga o'lkaning davlatchiligi hamda davlat boshqaruvida o'zining ayrim elementlarini qoldirib ketganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbekiston davlatchiligi tarixida Turk hoqonligi davlati muhim o'rin egallaydi. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi, Ashin, Arg'u, O'g'iz, To'qqiz o'g'iz, O'ttuz tatar, Qarluq, Qiton, Tolis, Turk, Uyg'ur, Quruqan, Duba va boshqalar yashardilar. VI asr boshlarida Oltoy o'lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi.

O'sha paytda hozirgi Mo'g'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. VI asr boshlarida Oltoydagi Turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqei ko'tariladi. Ashin urug'iga mansub Asan va Tuu 460-545 yillarda boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoydagi turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar.

Tuuning o'g'li Bumin Tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jujan xonining qo'shinlarini yengib, ularni o'zlariga bo'ysundiradi. Bumin 552 yilda Xoqon deb e'lon qilinadi va yangi davlat - Turk xoqonligiga asos solinadi [1, B.46-48].

Ma'lumotlarga ko'ra, Turk xoqonlari O'рта Osiyoda hukmronlik qilgan bo'lsalar-da biroq, o'zlari bu hududga ko'chib kelmaganlar. Ular Yettisuv va boshqa hududlardagi bosh qarorgohlarida qolib bo'ysungan hududlarni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulardan olinadigan soliq-o'lponlar va to'lovlar bilan kifoyalanganlar[2].

Bundan ko‘rinadiki, Turk xoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tizimlari saqlanib, ichki siyosat bobidagi mustaqil faoliyati davom etgan. Xoqonlik istisno hollardagina o‘lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralashgan. Bu narsa ko‘proq tashqi siyosat, xalqaro savdo-sotiq masalalariga daxl etardi. Turk xoqonligida davlatning oliy hukmdori “xoqon” unvoniga ega bo‘lgan. Xitoy manbalari ma‘lumotlariga ko‘ra, turkiylar xonni taxtga o‘tqazishda maxsus marosim o‘tqazishgan. Ya‘ni, amaldorlar bo‘lajak xonni kigizga o‘tqazib, quyosh yurishi bo‘ylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug‘lab turganlar. So‘ngra xonni otga o‘tqazib, bo‘yniga ipak mato bog‘laganlar va undan “Siz necha yil xon bo‘lmoqchisiz?” deb so‘raganlar. U necha yil xon bo‘lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan [3].

Qadimgi turkiy afsonalarda aytilishicha, turklarning tasavvuriga ko‘ra, davlatchilikning markazi, uni o‘z qo‘lida birlashtiruvchi shaxs xoqon hisoblangan. Boshqaruvda xoqonlarning humkron sulolasi asosiy bo‘lib, u uchta kuch – osmon (Tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi. Xoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor “yabg‘u” (bahodir) bo‘lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg‘u taxtga merosxo‘rlik qila olmas edi. Xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo‘lgan uluslarga bo‘linish tizimiga asoslanib belgilangan. Ushbu tizimga ko‘ra, taxt aksariyat hollarda otadan o‘g‘ilga emas, balki akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi.

Taxt merosxo‘ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Shahzodalar to taxtga o‘tirgunlariga qadar o‘zlariga berilgan usullarni boshqarib turganlar [4].

VIII asr o‘rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Viloyatlardagi hokimlar va boshqa hukmdorlarning qo‘li ostidagi ma‘muriy-idora usuli o‘z shaklini saqlab qolgan bo‘lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko‘pchiligi o‘z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish uchun islom dinini qabul qilgan edilar. Ushbu dinni qabul qilmagan zodagonlar o‘z mol-mulklaridan mahrum etilar yoki katta miqdordagi tovon to‘lar edilar[5]. Arablarning O‘rta Osiyoda bosib olgan hududlarining boshqarish markazi Marv shahri edi, shu yerdan turib xalifaning noibi Movaraunnahr hamda Xurosonni idora qilgan. VIII asrning o‘rtalari va oxirlarida Movaraunnahr va Xuroson hududlaridagi siyosiy boshqaruv xalifalik siyosiy tizimiga moslashtirib bo‘lingan edi.

Bu davrda Movaraunnahrda Sug‘d, Shosh, Farg‘ona, Xorazm, Ustrushona, Toxariston mahalliy hokimlari zimmasiga aholidan soliqlarni yig‘ish, ma‘muriy boshqaruvni amalga oshirish uchun islom dini g‘oyalarini aholi o‘rtasida yoyish asosiy vazifa qilib belgilangan edi.

Mahalliy hokimlar faoliyati xalifa tomonidan tayinlanadigan maxsus amirlar tomonidan qattiq nazorat ostiga olingan, shuningdek, ular xalifaning Xurosondagi noibiga itoat etishi shart bo‘lgan [6].

Tadqiqotlarga ko‘ra, arablar istilosidan keyin Movaraunnahrda musulmon qonunchilik tizimi ham joriy etiladi. Islom huquqshunosligining asosini tashkil etuvchi shariat, muqaddas kitob - Qur‘oni karim va Hadisi sharifga tayanar edi. Islom dinining har taraflama afzalligi, axloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi, bosib olingan mamlakatlar aholisi tomonidan uning tez orada qabul etilishiga sabab bo‘ldi. Islom moxiyatiga yetilgachgina, unga rag‘bat va e‘tiqod kuchayib ketdi. Olik-soliq, maishiy hayot bobida, zakot masalasida Qur‘on va Shariat

ahkomlarining qoidalari mehnatkash aholi tomonidan tezda qabul qilindi. Alloh oldidagi tenglik esa dinning ahamiyatini kuchaytirdi, haqparvarlik ruhi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi [7].

O'zbek davlatchiligi tarixida 50 yildan ziyodroq hukmronlik qilgan sulolalardan biri Tohiriylar sulolasi (Toxir ibn Husayn (821-822y.y.); Talxa ibn Toxir (822-828 y.y.); Abdulloh ibn Tohir (828-844 y.y.); Tohir II ibn Abdulloh (844-862 y.y.), Muhammad ibn Tohir (862-873y.y.)) edi. Tohiriylar mustahkam hokimiyat yaratish va qishloq xo'jaligini tartibga solish maqsadida jiddiy islohotlarni amalga oshirdilar. Ular yangi kanallar bunyod etib, suvdan foydalanishni yaxshilash choralari ko'rdilar. Abdulloh ibn Toxirning buyrug'i bilan o'lkadagi yirik qonunshunoslar sug'orish uchun foydalaniladigan suv taqsimoti qonunlari to'plami – Kitob al-kuniyni tuzdilar. Yuzlab yillar mobaynida ushbu qonunlar Movarounnahrda suvdan foydalanishdagi bahs-munozaralarni hal etishda asos bo'lib xizmat qilgan [8]. Xalq harakati natijasida hokimiyat tepasiga kelgan Safforiylar hukmronligiga kelib xalqning ahvoli sezilarni darajada yaxshilanmadi. Ular asosan mayda va o'rta hol yer egalariga suyangan holda davlatni idora qildilar. Safforiylar xalqdan olinadigan soliq miqdorini o'zgartirmadilar, natijada keng xalq ommasi ularni qo'llab-quvvatlamadi.

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Somoniylar sulolasi tarix sahnasida paydo bo'ldi.

900 yilda Buxoro ostonasida Amr ibn Lays qo'shinlari Somoniylardan mag'lubiyatga uchradi va Safforiylar hukmronligi tugatildi [9,B.66-70]. Somoniylar Movarounnahr va Xurosonda kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu g'oyani amalga oshirilishi Ismoil Somoniy (874-907 y.y.) hukmronligi davri bilan bog'liq. Yirik yer egasi bo'lgan Ismoil mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini ko'zlab ish tutdi.

Davlatning iqtisodiy kuch qudratini oshirish, qishloq xo'jaligini, hunarmandchilikni va savdoni rivojlantirilishiga ahamiyat qaratdi. Mamlakatning qudratini mustahkamlash uchun Ismoil Somoniy bir qancha islohotlar o'tkazdi.

Shunday islohotlardan biri davlatni boshqarish ma'muriyatini joriy qilish bo'ldi. Bu ma'muriyat **dargoh – amir saroyi** va **devon – davlat idorasi, vazirliklardan** iborat bo'lgan [10].

Davlatni boshqaruvchi oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashda Nuh II Somoniyning ma'rifatli vazirlari Abuabdullo Muhammad Jayhoni va Abufazl Muhammad Balamiylarning xizmatlari katta bo'lgan.

Somoniylar davrida bosh vazir lavozimiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan.

Davlat majmui **dargoh (amir saroyi)** va **devonga (vazirliklar, davlat idorasi)** bo'lingan [11]. Saroyda siyosiy hokimiyat **sohibi xoras** qo'lida bo'lib, u oliy hukmdor farmonlari ijrosini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa muhim Davlat idoralarning xavfsizligini amalga oshirish xizmatini **bosh hojib** va uning xodimlari olib borgan. Saroyda sharbatdorlar, dasturxonchilar, tashtadorlar, ot boqarlar, xo'jalik bekalari kabi turli xizmatchilar bo'lgan. Undagi barcha xo'jalik ishlarini **vakil** boshqargan. Vakil saroydagi eng e'tiborli kishilardan biri edi. Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Nasr II Somoniy davrida Buxoro registonida davlatdagi 10 ta devonga atab maxsus 10 ta bino qurilgan. Davlatda quyidagi devonlar faoliyat ko'rsatgan:

Devoni vazir (bosh vazir devoni). Bu devonga qolgan barcha devonlar bo'ysungan.

Bosh vazir devoni barcha ma'muriy, siyosiy, xo'jalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan.

Devoni mustaufi (moliyaviy ishlar devoni). Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. U xazinador tomonidan boshqarilib, devon ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo‘lgan.

Devoni amid al-mulk, yoki al-rasail (rasmiy hujjatlar devoni). Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug‘ullangan. Shuningdek, chet davlatlar bilan bo‘ladigan diplomatik munosabatlar ham nazorat qilingan.

Devoni sohib-ash-shurot (harbiy ishlar devoni). Bu devon davlatning butun harbiy ishlarini nazorat qilgan, harbiy intizomni ta‘minlagan hamda amirning shaxsiy qo‘shinini (gvardiyasini) boshqargan. Ushbu devonboshining maxsus yordamchisi – ariz bo‘lgan. U mahkama va uning boshlig‘i, amir qo‘shini xazinasi bilan shug‘ullangan. Qo‘shinga bir yilda to‘rt marta maosh to‘langan.

Devoni sohib al-borid (xat-xabarlar nazoratchisi devoni). Ushbu devon markazda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar, xabarnomalarni viloyat va shaharlarga yetkazish bilan shug‘ullangan.

Devoni muxtasib (bozorlar va ko‘chalar, shariat qonun qoidalariga rioya qilishni nazorat qiluvchi devon). Devon xizmatchilarining qiladigan asosiy ishi shahar va qishloqlarda, ko‘cha va bozorlarda tartib-intizomni, tosh-tarozini va aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish bo‘lgan. Devonboshi o‘z mirg‘azab (xodim) lari bilan barcha shaharlarda faoliyat ko‘rsatgan.

Devoni mamlakai xos (davlat ish boqaruvchisi devoni). Bu devon saroy ta‘minoti bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni nazorat qilgan. Muhim davlat ishlari, xazina kirim-chiqimini nazorat qilish ham ular zimmasida bo‘lgan.

Devoni vaqf (vaqf yerlari devoni). Machitlar, madrasalar, umuman diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lgan yer-suv, mol-mulk kabilarni boshqargan.

Devoni qozi az-ziyo (qozilik ishlari devoni). Bu devonni davlatning bosh qozisi boshqargan. Devon barcha viloyatlar va shaharlardagi qozilar faoliyatini nazorat qilib turgan.

Mazkur devonlarning barchasi (sohib al-borid devonidan boshqa) mahalliy hokimlar va oliy markaziy hokimiyatga bo‘ysungan [4]. Somoniylar davrida amaldorlarni davlat xizmatiga qabul qilishda davlat tili hisoblangan arab tilini mukammal bilish, islomiy huquq-fiqh meyorlaridan to‘liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob-kitob ishlarida bilimdonlik kabi ma‘lum bir talablar qo‘yilgan bo‘lib, bu markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi samaradorligini xizmat qilardi.

Movarounnahrda asosan islom dinining xanifiylik mazhabi tarqalgan bo‘lib, dindorlar boshlig‘i **ustod (keyinchalik shayx-ul-islom)** Somoniylar davlatida katta mavqega ega bo‘lgan [7]. Qoraxoniylar sulolasi o‘z hukmronligi davrida egallangan sarhadlarini bir necha marta o‘zgartirganlar. Movarounnahr zabt etilgunga qadar ularning mulklari Tyanshan va uning atroflari bo‘lsa, XI asr boshlariga kelib hoqonlik chegaralari Amudaryogacha yetgan. Ko‘p o‘tmay har bir viloyat ma‘lum siyosiy mavqega ega bo‘lgan holda xondan kichikroq unvonga ega elekxonlar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi [13]. G‘aznaviylar Movarounnahrda bor-yo‘g‘i 40 yilga yaqin hukmronlik qilgan bo‘lsalar-da, bu davr o‘zbek davlatchiligi tarixidagi muhim bosqichlardan biridir. Chunki, G‘aznaviylar paydo bo‘lishi davri – X asr oxiri – XI asr boshlarida vujudga kelgan boshqa bir davlatlar - Saljuqiylar va Qoraxoniylar kabi o‘ta muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan

voqea – nafaqat Movarounnahr, balki butun O‘rta Osiyoda turkiy davlatchilikning o‘zil-kesil qaror topganligini ko‘rsatadi [14]. O‘z davlatini barpo etgan ko‘chmanchi xalqlar davlatchiligi tarixida Saljuqiylar davlati muhim ahamiyatga egadir.

Manbalarning ma‘lumot berishicha, bu sulolaning paydo bo‘lishi qiniq qabilasi vakili bo‘lgan Saljuq nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u X asrning o‘rtalarida o‘g‘o‘zlar Yabg‘usining xizmatida bo‘lib, yirik harbiy unvon – “So‘boshi” unvoniga sazovor bo‘ladi. Bu haqda Mahmud Qoshg‘ariy “Saljuq So‘-boshi” deya ma‘lumot beradi [15].

XI asrning 40-yillaridan boshlab Saljuqiylar Xuroson, Gurgon, Dehiston va Xorazmni butunlay qo‘lga kiritib, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Kavkazorti va Kichik Osiyoga harbiy yurishlar uyushtirdilar. Ayniqsa, Sulton Alp Arslon (1063-1072 yy) va Sulton Malikshoh (1072-1092 yy) hukmronligi davrida Saljuqiylar davlatining hududlari yanada kengayib, mamlakatning yuksalgan davri bo‘ldi. Sulton Malikshoh davrida Samarqand, Buxoro va markazi O‘zgand bo‘lgan Farg‘ona ham Saljuqiylar davlatiga buysunadi. 1092 yilda Sulton Malikshoh vafot etgach uning vorislari o‘rtasida toj-taxt uchun kurash avj olib ketdi. Bir necha yillik kurashlardan so‘ng 1118 yilda Malikshohning o‘g‘li Sulton Sanjar (1118-1157 yy) taxtni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Buyuk Saljuqiylar sulolasining so‘nggi yirik vakili bo‘lgan Sulton Sanjar davrida davlatning poytaxti Marv shahriga ko‘chirildi. Sulton Sanjar Movarounnahrda Qoraxitoylarning ichki ishlariga, siyosatiga katta ta‘sir o‘tkaza olishga erishgan Saljuqiylardan edi. U hokimiyatni qo‘lga olishi bilanoq harbiy yurishlarni kuchaytiradi. Natijada bir qancha viloyatlar, xususan, Mozandaron, Xorazm, Seyiston, G‘azna va Movarounnahr Saljuqiylar davlatiga buysundiriladi. Manbalarning ma‘lumot berishicha, Sulton Sanjar “Ulug‘ sulton”, “Sultonlarning sultoni”, “Shahanshoh” kabi unvonlar bilan ulug‘langan [4].

Xulosa qilib aytganda, ildizlari qadimgi dehqonchilik madaniyatiga borib taqaluvchi O‘zbekiston davlatchiligi tarixi o‘zining butun tadrijiy takomili davomida buyuk yuksalish, gullab-yashnash davrlarini ham boshidan kechirdi.

REFERENCES

1. BOBOYOROV G.B. O‘ZBEK DAVLATCHILIGIDA TURK XOQONLIGINING TUTGAN O‘RNI // MARKAZIY OSIYODA KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ MADANIYATLAR SINTEZI. XALQARO KONF.MAT. TOSHKENT., 2020.
2. GUMILYOV L.N. QADIMGI TURKLAR. - TOSHKENT: FAN, 2007.
3. NASIMXON RAXMON. TURK XOQONLIGI. - TOSHKENT, 1990.
4. ABULG‘OZI. SHAJARAI TURK. - TOSHKENT: CHO‘LPON, 1990.
5. ABU RAYHON BERUNIY. TANLANGAN ASARLAR. T.1. QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR. A. RASULOV TARJIMASI. – TOSHKENT: FAN, 1966.
6. O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXI OCHERKLARI. MAS‘UL MUXARRIRLAR D.A.ALIMOVA, E.V.RTVELADZE. - TOSHKENT: SHARQ , 2001.
7. SAGDULLAYEV A. VA BOSHQALAR. O‘ZBEKISTON TARIXI: DAVLAT VA JAMIYAT TARAQKIYOTI. - TOSHKENT: AKADEMIYA, 2000.
8. AZAMAT ZIYO. O‘ZBEK XALQI DAVLATCHILIGI TARIXI. – TOSHKENT: SHARQ, 2001.

9. MAVLONOV O'.M. O'RTA ASRLAR MAHALLIY SULOLALAR DAVRIDA KARVON YO'LLARI // JAMIYAT VA BOSHQARUV. TOSHKENT. 2017. №3.
10. NEGMATOV N. N. GOSUDARSTVO SAMANIDOV. – DUSHANBE: DONISH, 1977.
11. ESHOV B.J. O'ZBEKISTONDA DAVLAT VA MAHALLIY BOSHQARUV TARIXI. T.: 2019.
12. SAGDULLAYEV A.S. VA BOSHQ. O'ZBEKISTON TARIXI: DAVLAT VA JAMIYAT TARAQQIYOTI. – TOSHKENT: AKADEMIYA, 2000.
13. ABUSEITOVA M.X. I DR. ISTORIYA KAZAXSTANA I SENTRALNOY AZII. ALMATI. BILIM. 2001.
14. SHONIYOZOV K. SH. QARLUQ DAVLATI VA QARLUQLAR. TOSHKENT: SHARQ, 1999
15. SHONIYOZOV K. SH. O'ZBEK XALQINING SHAKLLANISH JARAYONI. TOSHKENT: SHARQ, 2001